TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI TIJORATLASHTIRISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 347(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI TIJORATLASHTIRISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1147 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xodjayev Baxshillo Kamolovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Bozorov Sardor Sohibjonovich** yuridik fanlar doktori, professor **Axmadjonov Baxtiyorjon Usubjonovich** yuridik fanlar nomzodi
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “21” sentabr soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1288-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 6-sentabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 6-sentabrdagi 52-son reyestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

S.S.Gulyamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashuv sababli jahon iqtisodiyoti bugungi kunda bilimga asoslangan iqtisodiyot bo‘lib, har bir davlat o‘z iqtisodiyotiga ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali ushbu tizimda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga harakat qilmoqda. Mazkur jarayonda intellektual mulk obyektlari rivojlangan davlatlar uchun ham, rivojlanayotgan davlatlar uchun ham birdek bilimga asoslangan iqtisodiyot asosi, o‘z rivojlanish darajasi o‘sishi barqarorligi, jahondagi mavqeini saqlab turishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Birgina AQSh yalpi ichki mahsulotining 38,2 foizi intellektual mulkni ko‘p talab qiladigan sohalarga to‘g‘ri kelmoqda[1]. Innovatsiyalar Xitoy YIM 13 foizi, Germaniyada 5 foizini tashkil etmoqda[2]. Mazkur davlatlarda tom ma’noda intellektual mulk bozori shakllangan deyish mumkin. Shuningdek, **S&P Global Ratings** indeksi bo‘yicha qilingan hisob-kitoblarga ko‘ra 1975-yilda nomoddiy aktivlar S&P 500 ga kiruvchi kompaniyalar balansidagi aktivlarning atigi 17 foizini tashkil qilgan. 2023-yilda esa nomoddiy aktivlar kompaniyalar balansdagi jami aktivlarning 90% dan oshgani qayd etilgan[3]. Bularning barchasi intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy asoslarini hamda ushbu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda an’anaviy va zamonaviy shakllarni, bu borada axborot texnologiyalarining o‘rnini tadqiq qilish hamda mavjud tizimni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi.

Jahonda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish turli usullar, vositalar hamda muayyan huquqiy tartibot asosida amalga oshiriladi. Bu, avvalo, yuqorida ta’kidlanganidek, har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqadi. Aksariyat davlatlar qonunchiligida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish masalalari klassik mukofot nazariyasi ***(Reward Theory)***ga asoslangan bo‘lsa, rivojlangan davlatlar (AQSh, Yaponiya) qonunchiligida mazkur nazariya bilan bir qatorda istiqbol ***(Prospect Theory)*** va tijoratlashtirish nazariyalari ***(Commercialization Theory)***ga doir qoidalar ham o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, jahon amaliyotida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning “chiziqli”, “zanjirli”, “bozor”, “korporativ-davlat”, “klaster”, “korporativlararo” kabi modellar, mutlaq huquqlar ***(exclusive rights)***, mukofotlanish huquqlari ***(remuneration rights)*** singari ssenariylar orqali amalga oshirilishini ko‘rish mumkin. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy jihatdan o‘ziga xosligi sifatida intellektual mulk obyektiga nisbatan uning egasiga tegishli bo‘lgan mulkiy huquqlar majmui – mutlaq huquqlardan tashqari shaxsiy nomulkiy huquqlarning ham mavjudligini keltirish mumkin. Bunda tijoratlashtirishni samarali amalga oshirish maqsadi qo‘yilar ekan shaxsiy

[1] Intellectual Property: What do the statistics indicate? // URL: https://crigroup.com/intellectual-property-what-do-the-statistics-indicate/

[2] WIPO (2024). *World Intellectual Property Report: Making Innovation Policy Work for Development.* Geneva: World Intellectual Property Organization. DOI: https://doi.org/10.34667/tind.49284

[3] Annie Brown (Brand Finance), Jack Gregory (WIPO) and Sacha Wunsch-Vincent (WIPO). Intangible assets owned by all listed companies grew to USD 74 trillion in 2021 - the US and China have the most intangible-asset intensive firms in, respectively, high- and middle-income economies. URL:https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/news/2022/news_0007.html

nomulkiy huquqlarga ham rioya etilishi zarurligi dolzarb ahamiyatga ega. Hozirgi globallashuv, axborot-texnologiyalari zamonida intellektual mulk obyektlarining erkin, har tomonlama adolatli, sog‘lom raqobat mavjud bozorini yaratish, intellektual mulk obyekti muallifi (huquq egasi) huquqlari doirasi va chegaralari borasidagi yondashuvlarni o‘z ichiga olgan doktrina (nazariya)larni tadqiq qilish ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jahonning ko‘plab davlatlarida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy asoslariga oid maxsus qonunchilik yaratilgan va tijoratlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, elektron-onlayn savdolarni tashkil qilish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish masalasi haqida yakuniy to‘xtamga kelinmaganligini ko‘rish mumkin. Bunda huquqshunoslikning, xususan, fuqarolik huquqining asosiy vazifasi sifatida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik-huquqiy asoslarini belgilash, shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalarini ishlab chiqish, yuzaga keladigan nizolarni hal etishga oid moddiy huquq normalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham intellektual mulk, uni tijoratlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek: “Agar intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarmasak, O‘zbekiston 10 yildan keyin ham raqobatdosh bo‘lmaydi[1]”. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda mazkur sohani rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish, uni huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasining 10-maqsadi sifatida iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish nazarda tutilgan. Shu va boshqa bu boradagi maqsad-vazifalarga muvofiq O‘zbekistonda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan ta’minlash, uni amalga oshirish mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish, bunda birinchi navbatda, tijoratlashtirishning asosiy subyektlari faolligini oshirish, qonunchilikni takomillashtirish, shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biroq milliy qonunchilikda intellektual mulkni tijoratlashtirish tadbirkorlik faoliyati bo‘lgani holda uni haddan tashqari davlat tomonidan tartibga solinishi ***(qattiq (hard) paternalizm)***, tijoratlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadi belgilanganda esa bunga huquqiy tartibga solishni yaxshilash emas, balki son va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish maqsad qilinishi, shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligining ayrim normalari intellektual mulkni mulk sifatida deyarli tan olmasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa intellektual mulk

[1] Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish masalalari muhokama qilindi. URL: https://president.uz/uz/lists/view/3887

obyektlarini tijoratlashtirish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatining o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga bevosita xos bo‘lgan intellektual mulk huquqi sohasidagi “birinchi sotuv” doktrinasi ***(First Sale Doctrine)***, axloqiy huquqlar doktrinasi ***(Moral Rights Doctrine)***, nomoddiy ne’matlar nazariyasi ***(Immaterialgüterrecht)***, utilitarianizm nazariyasi ***(Utilitarianism Theory),*** adolatli foydalanish ***(Fair Use)***, instrumentalizm nazariyasi ***(Instrumentalist Theory)*** kabi umumiy, mukofot nazariyasi ***(Reward Theory)***, istiqbol nazariyasi ***(Prospect Theory)***, tijoratlashtirish nazariyasi ***(the Commercialization Theory)*** kabi maxsus nazariyalar va doktrinalar bugungi kunga qadar yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Ularning ayrimlarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash masalalari tahlil qilinmagan. Shunga ko‘ra mamlakatimizda intellektual mulkni tijoratlashtirishni amalga oshirish va himoya qilish bilan bog‘liq qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish va istiqbollarini belgilash zaruriyati vujudga kelmoqda, deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi, 2019-yil 30-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3855-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik huquqiy masalalari o‘rganilgan. Xususan, intellektual mulk obyektlaridan tijorat muomalasida foydalanishning huquqiy shakllari S.M.Safoyeva tomonidan, innovatsion faoliyat doirasida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish masalasi esa A.D.Axmedov tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik-huquqiy masalalari O.Okyulov, S.Gulyamov, N.Imomov, B.Xodjayev, Z.Akramxodjayeva, L.Toshpo‘latova, Q.Mehmonov,

I.Yakubova, A.Yuldashev, A.Tojiboyevlar tomonidan tadqiq etilganligini keltirib o‘tish mumkin[1].

MDH mamlakatlarida V.I.Muxopad, L.G.Nigmatullina, A.A.Timofeyeva, S.V.Pavlova, S.Y.Sitnikova, A.S.Zubkov, S.V.Nazyutalar intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning iqtisodiy jihatlari, L.A.Novoselova, O.A.Ruzakova, A.V.Demkina, M.A.Rojkova, I.S.Muxamedshin, O.S.Grin, K.D.Glazunova, N.Karpova, V.B.Nagrodskaya ushbu jarayonning huquqiy tabiati bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan[2].

Xorijiy mamlakatlarda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning doktrinal jihatlari L. Donald Prutzman, Eric Stenshoel, Shubha Ghosh, Noreen Wiscovitch Rentas, Diego Espín Cánovas, Elizabeth Schéré tomonidan, intellektual mulkni tijoratlashtirish masalalari G.B. Halt, D.S.Siegel, M. Wright, Robert E. Litan, Lesa Mitchell, E. J. Reedy, Phillip H. Phan, A.Kulyagina, Yu.B.Kolozhvari, S.V.Koval, Haziman Zakaria, Diyana Kamarudin, Muhammad Ashraf Fauzi, Walton Wider, Vanya Bromfield, John Runeckles, Ned T. Himmelrich va boshqalar tomonidan keng o‘rganilgan[3].

Garchi ushbu olimlar tomonidan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish faoliyati bilan bog‘liq u yoki bu masalalar ma’lum darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda mazkur tijoratlashtirish faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solinishiga oid asosiy va dolzarb muammolar ushbu faoliyatni hozirgi kun o‘zgarishlaridan kelib chiqib tahlil qilishni taqozo etadi.

Negaki ular tomonidan O‘zbekiston qonunchiligida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish qaysi doktrina yoki ta’limot yoxud qaysi model asosiga qurilganligi, ayni vaqtda, qaysi doktrina va modellarni qonunchilikka tatbiq etish ehtiyoji mavjudligi, tijoratlashtirishga davlat aralashuvi qanday paternalistik yondashuvga ko‘ra tartibga solinishi kerakligi, bunday tartibga solish natijasida yaratilgan qonunchilik tijoratlashtirish jarayoni ishtirokchisi bo‘lgan avtonom subyektlarning qanday harakatlarini qizil chiziq bilan belgilashi zarurligi kabi masalalarga to‘xtalinmagan.

Shu bilan bir qatorda, mazkur dissertatsiya mavzusi doirasida O‘zbekistonda kompleks tadqiq qilingan yaxlit ilmiy tadqiqot ishi mavjud emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan mosligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda “Intellektual mulk obyektlarini fuqarolik muomalasida bo‘lishini fuqarolik-huquqiy ta’minlash” ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

[1] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.
[2] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.
[3] Mazkur olimlar asarlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish tushunchasiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tadqiq etish;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish faoliyatini huquqiy ta’minlash masalalarini tahlil qilish;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning milliy qonunchilik tajribasini xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyoslash orqali uni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga oid shartnoma konstruksiyalarini qo‘llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berish;

O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekistonda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda tijoratlashtirish jarayoni bo‘yicha nazariyalar, doktrinalar, ilmiy-nazariy qarashlar va g‘oyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, tarixiylik, mantiqiy (tahlil, sintez, deduksiya va induksiya), statistik kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish deganda mazkur obyektlarni foyda olish maqsadida turli shartnoma shakllaridan foydalangan holda fuqarolik muomalasiga joriy etish tushunilishi, undiruv mutlaq huquqlarga nisbatan qaratilgan holatlar mutlaq huquqlarning boshqa shaxsga o‘tishi asoslaridan biri ekanligi asoslab berilgan;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish usullari doirasi kengligi, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar ustav fondiga ulush sifatida kiritilganda mazkur ulush miqdori chegaralangan bo‘lishi kerakligi, shuningdek, majburiy baholanishi shartligi, tijorat siri jumlasiga kiruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ishlanmalarni tijoratlashtirishda maxsus huquqiy rejimga amal qilinishi zarurligi asoslantirilgan;

muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari tijoratlashtirilishi mumkin emasligi, mazkur huquqlar har qanday holatda unga tegishli bo‘lishi, bunday huquqlar mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga o‘tkazilgan taqdirda ham saqlab qolinishi asoslab berilgan;

majburiy litsenziya belgilangan stavka bo‘yicha to‘lovni to‘lash sharti bilan amalga oshirilishi, majburiy litsenziya berilishidan nafaqat shaxs va jamiyat, balki davlat ham manfaatdor bo‘lishi kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

intellektual mulkni ustav fondiga kiritish yuzasidan fuqarolik qonunchiligi va sud amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

“Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga mazkur moddada nazarda tutilgan tijoratlashtirish usullari doirasini kengaytirish yuzasidan qo‘shimcha kiritish zarurati asoslab berilgan;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga oid shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalar namunalari keltirilgan;

universitet va ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga tegishli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish tizimini yaratish maqsadida har bir oliy ta’lim (tadqiqot) muassasasida intellektual mulk siyosati mavjud bo‘lishi zarurati asoslab berilib, O‘zbekiston oliy ta’lim (tadqiqot) tashkilotlari uchun namunaviy siyosat ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining xorijiy va milliy nashrlarda e’lon qilinganligi, bildirilgan taklif va xulosalardan tegishli davlat organlari huquq ijodkorligida foydalanilganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosa va amaliy takliflardan startaplar faoliyatini huquqiy tartibga solish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek “Biznes huquqi”, “Fuqarolik huquqi”, “Intellektual mulk huquqi” kabi yuridik fanlarini o‘qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek tadbirkorlik subyektlari amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish deganda mazkur obyektlarni foyda olish maqsadida turli shartnoma shakllaridan foydalangan holda fuqarolik muomalasiga joriy etish tushunilishi, undiruv mutlaq huquqlarga nisbatan qaratilgan holatlar mutlaq huquqlarning boshqa shaxsga o‘tishi asoslaridan biri ekanligi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi tahriri loyihasi 1084-moddasi va 1091-moddasini shakllantirishda foydalanilgan*(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 11-iyuldagi № 27/1-30-son dalolatnomasi)*. Mazkur taklif intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va ularga bo‘lgan huquqlarga nisbatan undiruvni qaratishning huquqiy asoslari takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish usullari doirasi kengligi, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar ustav fondiga ulush sifatida kiritilganda mazkur ulush miqdori chegaralangan bo‘lishi kerakligi, shuningdek, majburiy baholanishi shartligi, tijorat siri jumlasiga kiruvchi ma’lumotlarni o‘z

ichiga olgan ishlanmalarni tijoratlashtirishda maxsus huquqiy rejimga amal qilinishi kerakligi bo‘yicha bildirilgan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik kodeksi loyihasining 318-moddasi 2-4-qismlarini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 11-iyuldagi № 27/1-31-son dalolatnomasi)*. Mazkur taklif intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish usullari doirasini aniqlash, ushbu obyektlarga bo‘lgan huquqlarni ustav fondiga ulush sifatida kiritish, bunda tijorat sirining maxsus huquqiy rejimiga amal qilinishi zarurligiga doir qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilgan;

muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari tijoratlashtirilishi mumkin emasligi, mazkur huquqlar har qanday holatda unga tegishli bo‘lishi, bunday huquqlar mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga o‘tkazilgan taqdirda ham saqlab qolinishi haqidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Intellektual mulkka oid ishlarni ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 19-son qarorining 16-bandi 2-xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 27-maydagi № 08/458-24-son dalolatnomasi)*. Mazkur taklif shaxsiy nomulkiy huquqlarga oid huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

majburiy litsenziya belgilangan stavka bo‘yicha to‘lovni to‘lash sharti bilan amalga oshirilishi, majburiy litsenziya berilishidan nafaqat shaxs va jamiyat, balki davlat ham manfaatdor bo‘lishi kerakligi haqidagi takliflardan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 15-fevraldagi O‘RQ–908-son Qonunining 1-moddasi 2-bandini (O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi 1062-XII-sonli Qonuniga kiritilgan 11^1-moddani) shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 28-maydagi №3/08-93-son xati va dalolatnomasi)*. Mazkur taklif sanoat mulki obyektlari uchun majburiy litsenziya berishning huquqiy asoslari yaratilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola (shu jumladan, 1 ta xorijiy maqola) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, 9 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiya hajmi 154 betni (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashqari) tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ***“Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga nazariy-huquqiy tavsif”*** deb nomlangan birinchi bobida intellektual mulk huquqiga oid huquqiy nazariya (doktrina)lar, ularning tijoratlashtirish bilan bog‘liq jihatlari, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish tushunchasi, fuqarolik-huquqiy belgilari, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish bo‘yicha huquqiy nazariyalar, uning iqtisodiy va huquqiy modellari tahlil qilingan. Zamonaviy intellektual mulk huquqida amal qilayotgan klassik (huquqlarning tugashi doktrinasi ***(Exhaustion Doctrine)***, nomoddiy ne’matlar nazariyasi ***(Immaterialgüterrecht)***, axloqiy huquqlar doktrinasi ***(Moral Rights Doctrine)***, utilitarianizm nazariyasi ***(Utilitarianism Theory),*** mehnat nazariyasi ***(Labor Theory)***, shaxsiyat nazariyasi ***(Personality Theory)***, ijtimoiy rejalashtirish nazariyasi ***(Social Planning Theory)*** va zamonaviy (adolatli foydalanish ***(Fair Use)*** doktrinasi, instrumentalizm nazariyasi ***(Instrumentalist Theory)*** kabi nazariyalar va ularning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Ushbu nazariyalarning milliy qonunchilikdagi ifodasi hamda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga ta’siri yuzasidan fikr yuritilgan.

Shuningdek, dissertant tomonidan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga doir nazariyalar ham tahlil qilinib, milliy qonunchilik mukofot nazariyasi ***(Reward Theory)***ga asoslanganligi ochib berilgan. Istiqbol ***(“Prospect” Theory)*** va tijoratlashtirish nazariyalari ***(the Commercialization Theory)*** qoidalari ham qonunchilikda mavjudligi, ularni qonunchilikda yanada to‘g‘ri aks ettirish istiqbollari yuzasidan fikrlar bildirilgan. Bunda AQShda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda hukmron nazariya mukofot nazariyasi hisoblansa-da, uning istiqbol va tijoratlashtirish nazariyalari qoidalari bilan uyg‘unlashtirilganligiga alohida urg‘u berilgan. O‘zbekiston sharoitida Bay-Doul kabi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish zarurati bayon qilingan. Tijoratlashtirish nazariyasi qoidalarini joriy etishda esa Yaponiyaning “Universitetlar va boshqa davlat ilmiy-tadqiqot institutlarida yaratilgan texnologiyaga oid ilmiy ish natijalarini xususiy sektorga transfer qilinishini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qonuni tajribasiga tayanish mumkinligi asoslantirilgan.

Ommaviy huquq sohasiga taalluqli bo‘lsa-da, monopoliyaga qarshi kurashish va huquqlarni suiiste’mol qilishni cheklashga qaratilgan tabiiy monopoliya nazariyasi ***(Theory of Natural Monopoly)***, suiiste’mol qilish ***(Misuse Doctrine)*** nazariyalarining intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishdagi ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish modellari bayon qilinar ekan, ularning innovatsiyalar bilan nisbatiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Ularning qonunchilikdagi ifodasi yuzasidan misollar keltirilgan. Mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirishga oid mutlaq huquqlar ***(exclusive rights)*** va mukofotlanish huquqlari ***(remuneration rights)*** ssenariylari qiyosiy tahlil qilinib, ularning bir-biridan farqli hamda afzal jihatlari ochib berilgan. Bunda klassik ssenariy sifatida mutlaq huquqlar ***(exclusive rights)*** ssenariysidan ko‘ra mukofotlanish huquqlari ***(remuneration rights)*** ssenariysidan foydalanishning ham iqtisodiy, ham ma’naviy, ham huquqiy foydasi yuqori bo‘lishi amaliy misollar bilan asoslantirilgan.

Tadqiqotchi intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish tushunchasi va uning fuqarolik-huquqiy belgilari haqida ham ushbu bobda to‘xtalib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish tushunchasini tahlil qilishda u ko‘plab huquqshunos (M.A.Rojkova, O.A.Ruzakova, A.Demkina, O.Oqyulov, X.Radjapov, S.Safoyeva, B.Xodjayev, A.D.Axmedov) va iqtisodiy sohadagi S.Sudarikov, V.Muxopad kabi olimlarning fikr va qarashlaridan foydalangan. Shuningdek, Butunjahon intelektual mulk tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ta’riflardan misollar keltirgan. Ularni bir-biri bilan taqqoslash orqali intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish deganda iqtisodiy nuqtai nazardan qo‘shimcha qiymat yaratish tushunilsa, huquqiy jihatdan ularni fuqarolik muomalasiga kiritish tushunilishi asoslab berilgan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik-huquqiy belgilarini ochib berishda qonunchilik va olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan cheklanilmasdan, zamonaviy intellektual mulk huquqida amalda bo‘lgan nazariyalarga asoslangan holda fikr yuritilgan. Bu bilan intellektual mulk huquqi sohasidagi nazariyalar va ularning intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ***“Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik-huquqiy usullari”*** deb nomlanib, ushbu bobda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning an’anaviy hamda noan’anaviy (zamonaviy) shakllari, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni garovga qo‘yish va mazkur huquqlarga undiruvni qaratish, bu boradagi ba’zi muammolar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish shakllarini an’anaviy va noan’anaviy shakllarga ajratishda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu boradagi pozitsiyasi hamda milliy qonunchilikda belgilangan tijoratlashtirishning asosiy usullaridan kelib chiqib fikr yuritgan. Dissertant ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalaridan foydalangan holda yaratilgan tovarlarni (bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki ushbu natijalardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishga xorijiy (AQSh) va milliy tajriba nuqtai nazaridan yondashgan. Bunda AQShda yaratilgan intellektual mulk obyektidan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish deganda, asosan, ixtirochi tomonidan mazkur obyektni mustaqil tijoratlashtirish tushunilsa, O‘zbekiston sharoitida, asosan, korxona tomonidan moliyalashtirilgan holda yaratilgan ishlanma va ixtirolarning shu korxona tomonidan qo‘llanilishi tushunilishi asoslab berilgan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda unga bo‘lgan huquqlar asosida korxona (tashkilot) tuzish yoki ularning ustav kapitaliga kiritish masalalari

bayon etilar ekan, dissertant intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan vositalar guruhlaridan kelib chiqib o‘z fikrlarini bildiradi. Bu bo‘yicha milliy va xorijiy amaliyotni taqqoslaydi. Startaplarning bugungi kundagi ahamiyati, bu boradagi davlat qo‘llab-quvvatlashining muhimligi bo‘yicha fikrlar beradi. O‘zbekiston sharoitida rivojlanayotgan startaplar va ularning tajribasidan misollar keltiradi.

Bobda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish uchun tashkil etiladigan yuridik shaxslardan yana biri – *spin-off* kompaniyalar haqida so‘z boradi. Dissertant talqinicha, bu kabi kompaniyalar uchun o‘rnatilgan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida shu’ba xo‘jalik jamiyati va qaram xo‘jalik jamiyati uchun o‘rnatilgan normalarga juda yaqin. Bunday jamiyatlar O‘zbekistonda hozirda kam bo‘lsa ham faoliyat yuritayotganligi, ularning oliy ta’lim va davlat ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etilishi zarurati borligi asoslantirilgan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning noan’anaviy (zamonaviy) shakllari sifatida O‘zbekistonga endi kirib kelayotgan, ommalashayotgan, shu bilan birga, amalda umuman qo‘llanilmayotgan shakllar tanlab olingan. Injiniring, sanoat kooperatsiyasi, texnik yordam, intellektual mulk lizingi, intellektual mulk aktivlari bilan ta’minlangan sekyuritizatsiya, pulli ijtimoiy mulk shular jumlasidandir. Bunda dissertant mazkur tijoratlashtirish shakllaridan qaysi biri O‘zbekiston uchun istiqbolli, qaysi biri esa, ayni paytda, istiqbolsiz bo‘lishi mumkinligi yuzasidan fikr yuritgan.

Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni garovga qo‘yish, ularga undiruvni qaratish jarayonini tahlil qilishda dissertant tomonidan milliy va xorijiy olimlarning fikrlari, bir nechta modellar va xorijiy davlatlar tajribasi keltirib o‘tilgan. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda intellektual huquqlar garovi bilan ta’minlangan kreditlash fuqarolarni intellektual mulkni yaratishga rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznesning yuqori texnologiyali sektorini rivojlantirish maqsadida davlat siyosati vositasiga aylanganligi, AQSh, Buyuk Britaniyada esa haqiqiy nomoddiy aktivlar bozori shakllanganligi bayon etilgan.

Dissertant fikricha, milliy qonunchilikda belgilangan garovga oid normalar, asosan, moddiy ashyolarni garovga qo‘yishga yo‘naltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida intellektual mulk bilan ta’minlangan kreditlashning ikkita modelidan birini joriy qilish mumkin. Birinchisi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mualliflik huquqi egasi – garovga qo‘yuvchi (qarz oluvchi) va kreditor bank – garovga oluvchi o‘rtasida garov bilan kredit shartnomasini tuzishni o‘z ichiga oladi. Ushbu model banklarning intellektual mulk likvidligining yo‘qligi bilan bog‘liq xavf-xatarlarga nisbatan ehtiyotkorligi, shuningdek, O‘zbekistonda AQShdagi kabi kreditni to‘lashni kafolatlaydigan tashkilotlar mavjud emasligi tufayli hali amalda qo‘llanilmagan bo‘lishi mumkin. Bunday kreditlash tizimi faol qo‘llaniladigan mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya) investitsiya va sug‘urta kompaniyalari, shuningdek, ushbu muammoni hal qilish uchun tashkil etilgan boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar kafil sifatida ishlaydi.

Ikkinchi model intellektual mulk huquqlari egasining patent berish shartnomasi asosida innovatsion investitsiya loyihasi tashkilotchisi bo‘lgan korxonaga intellektual mulkdan sanoat (tijorat)da foydalanish huquqini berishi

(topshirish) bilan bog‘liq. Keyinchalik, loyiha tashkilotchisi o‘zining mavjud intellektual mulk huquqlari bilan ta’minlangan kredit olish uchun bankka murojaat qiladi. Bank kredit beradi va ajratilgan aktivlarni maqsadli kompaniya balansiga o‘tkazadi (sotish yo‘li bilan).

Undiruvni intellektual mulk huquqiga qaratish mumkinligi darajasiga ko‘ra muallif bunday obyektlarni uch turga ajratadi:

1. Qonunning bevosita ko‘rsatmalariga ko‘ra undiruv qaratilishi mumkin bo‘lmagan intellektual mulk obyektlari muallifning va boshqa huquq egalarining shaxsiy nomulkiy huquqlari *(masalan, mualliflik huquqi, mualliflik huquqi asarini nashr etish)*;

2. Undiruv qaratilishi imkoniyati yuqoriroq bo‘lgan intellektual mulk obyektlari *(vakolatli organlarda ro‘yxatdan o‘tgan, patent yoki guvohnoma kabi hujjatlar bilan tasdiqlangan huquqlar)*;

3. Undiruv qaratilishi bevosita qonun bilan taqiqlanmagan, biroq undiruv tartibi va huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning aniq huquqiy tartibga solinmaganligi sababli undiruvni amalga oshirish nihoyatda qiyin bo‘lgan obyektlar *(oshkor etilmagan axborot (nou-xau), integral mikrosxemalar topologiyasi, ro‘yxatdan o‘tmagan EHM dasturlari)*.

Yuqoridagilarga asosan, intellektual mulk huquqlari garovi va ularga nisbatan undiruvni qaratish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy mulohazalar bildirilib, qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi ***“Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning fuqarolik-huquqiy vositalari”*** deb nomlangan. Bunda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalari, ularni qaysi tijoratlashtirish shakli uchun tanlash maqsadga muvofiqligi, tijoratlashtirishda avtonomiya tizimini yo‘lga qo‘yish, buning davlat, unga tegishli oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning shartnomaviy-huquqiy konstruksiyalarini tahlil etishda dissertant ushbu turdagi shartnomalarni uchta katta guruhga bo‘lishni maqsadga muvofiq deb topadi:

1) Intellektual faoliyat natijalarini yaratish haqidagi shartnomalar *(mualliflik buyurtmasi shartnomasi, intellektual faoliyat natijalarini yaratish buyurtmasi shartnomasi, ITTKI pudrati shartnomasi)*;

2) Mavjud intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarni tasarruf etish bo‘yicha shartnomalar *(mutlaq huquqlarni begonalashtirish shartnomasi, litsenziya shartnomasi, ishonchli boshqarish shartnomasi, garov shartnomasi)*;

3) Boshqa intellektual mulk huquqlariga bo‘lgan huquqlarga nisbatan shartnomalar *(mukofotga bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish shartnomasi, patent olishga bo‘lgan huquqni tasarruf etish shartnomasi)*.

Bobda mazkur shartnoma turlarining deyarli barchasi muhokama qilingan. Nima uchun aynan ular tijoratlashtirish shartnomalari sifatida ko‘rilishi bo‘yicha fikrlar bildirilgan.

Tahlil davomida ular orasida mutlaq huquqlarni begonalashtirish shartnomasi hamda litsenziya shartnomasi universal hamda xorijiy va milliy tajribada eng ko‘p qo‘llaniladigan shartnoma turlari ekanligi asoslantirilgan. Fikrlarni asoslantirishda

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilgan.

Litsenziya shartnomalarining har uchala turi bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Oshkor etilmagan axborot (nou-xau)ni o‘tkazib berish shartnomasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazishga oid talablar keltirib o‘tilgan.

Raqamli texnologiyalar davrida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni tasarruf qilish bo‘yicha shartnomalar *(smart-contract)*ni tuzish masalasi ham tahlil etilgan. Dissertant mazkur sohadagi olimlarning qarashi ikki guruhga bo‘linganligini bayon etadi.

Birinchi guruh olimlar buni tijoratlashtirish bo‘yicha alohida shartnomaviy-huquqiy shakl – ***qo‘shilish shartnomalari*** sifatida baholasa, ikkinchi guruh olimlar buni shartnoma tuzish usuli sifatida ko‘radilar. Dissertant mazkur holatda ikkinchi guruh olimlar fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, bobda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan intellektual mulk obyektlarining tijoratlashtirilishi masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Shuningdek, ushbu bobda dissertant tomonidan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda paternalizm va avtonomiyaning o‘zaro nisbati ochib berilgan. Tadqiqotchi mazkur ikki tushunchaning mazmun-mohiyatini ochib berar ekan, bugungi kunda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda kuchli paternalizm ***(strong paternalism)*** tizimi amal qilayotganligini qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotidan keltirilgan bir nechta misollar bilan asoslaydi.

Ushbu misollarda keltirilgan oqibatlar yuzaga kelmasligi, turli to‘sqinliklarni kamaytirish maqsadida kuchli paternalizmdan avtonomiyaga yo‘naltirilgan ***(autonomy-oriented)***, shu bilan birga, davlatning normativ-huquqiy tartibga solish va nizolarni hal qilish uchun sharoit yaratishdagi o‘rnini inkor etmagan holda aralash paternalizm ***(mixed paternalism)*** o‘tish zarurati mavjudligi bayon etilgan.

